



**Davlat sektorida buxgalteriya hisobining kassa
metodini qo'llashning nazariy-amaliy jihatlar**

Masharipov Odilbek Muzaffar o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti 2-kursmagistranti

E-mail: odilbekmasharipovv@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi davlat sektorida buxgalteriya hisobining kassa metodidan foydalanish jarayonining ahamiyatini o'rganish, uning ustuvor tomonlari va kamchiliklarining nazariy-amaliy jihatlarini asoslab berish, xalqaro tajriba va standartlarga asoslanib kassa metodining yutuqlari orqali mamlakatimizda budget hamda buxgalteriya hisobini yanada takomillashtirish to'g'risida to'xtalib o'tildi.

Kalit so'zlar: kassa metodi, davlat sektori, budget, buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, xalqaro standartlar.

Abstract: This article discussed the importance of the process of using the cash method of accounting in the public sector of the Republic of Uzbekistan, substantiating the theoretical and practical aspects of its priorities and shortcomings, and further improving the budget and accounting in our country through the achievements of the cash method based on international experience and standards.

Key words: cash method, public sector, Budget, Accounting, Financial Report, International Standards.



Аннотация: В данной статье рассмотрена значимость процесса использования кассового метода бухгалтерского учета в государственном секторе Республики Узбекистан, обоснованы теоретико-практические аспекты его приоритетов и недостатков, на основе международного опыта и стандартов проведено дальнейшее совершенствование бюджетного и бухгалтерского учета в нашей стране через достижения кассового метода.

Ключевые слова: кассовый метод, государственный сектор, бюджет, Бухгалтерский учет, финансовая отчетность, международные стандарты.

KIRISH

Mamlakatimizda budjet hisobini isloh etishda Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlarini qo'llash yondashuvi belgilandi. Bunda hisoblash usuliga bosqichma-bosqich o'tish yo'li belgilandi. Ushbu bosqichda davlat sektorida hisob va hisobot kassa usulida hisoblash usuli elementlaridan foydalangan holda yuritiladi. Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlarini mamlakatlarda qo'llash yanada yuqori sifatli moliyaviy hisobotlar davlat sektori faoliyati natijalarini baholashga katta imkoniyat yaratadi, axborotlarni shaffofligini oshiradi. Davlat budjetining va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining ijrosi bo'yicha budjet hisobi kassa usuli bo'yicha yuritiladi. Ushbu bosqichda davlat sektorida hisob va hisobot kassa usulida hisoblash usuli elementlaridan foydalangan holda yuritiladi.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi va G'aznachilikning asosiy vazifalaridan biri davlat budjetining kassa ijrosi, jumladan tushadigan daromadlarni turli darajadagi budjetlar o'rtasida taqsimlash, budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetalari ijrosi va Davlat budjeti ijrosi to'g'risida hisobot tuzish hisoblanadi.



ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasi budjet munosabatlarini takomillashtirish bo'yicha iqtisodchi olimlar tomonidan bildirilgan fikrlar va tavsiyalar mamlakat buxgalteriya hisobining kassa metodini qo'llash, hisob jarayonining samaradorligini oshirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Xorijiy mamlakatlarda buxgalteriya hisobining kassa metodi rivojlanishi masalalari James Ch., Thomas B.[1], Kovalev.V., Vit V.[2], va boshqalarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan.


O'zbekiston iqtisodchi olimlardan Mehmonov S., Kuliboyev A., Ostanoqulov A., Suvanqulov A.larning ilmiy ishlarida davlat sektori uchun buxgalteriya hisobining kassa usulida operatsiyalar va barcha hodisalar (daromadlar, xarajatlar) pul mablag'lari harakatiga bog'liq bo'lgan holda tan olinilishi, kassa va hisoblash metodining kamchiliklari va yutuqlari, amaliyotda qisman mamlakatlar kassa usulida (sof holda) hisobni yuritilishini bilan bog'liq masalalar o'rganilgan.[3] Bundan tashqari, iqtisodchi olimlardan T.Malikov davlat budjeti va budjetlar aro munosabatlarni nazoratini mustahkamlash, shuningdek, moliyaviy boshqaruv tizimini shaffof qilish uchun xalqaro tajribalardan foydalanish zarurligini qayd etadi. U, ayniqsa, byudjetning samarali boshqarilishini ta'minlash uchun budjetlashtirish tizimini modernizatsiya qilish, hisobotlarning ochiqqligini oshirish va davlat xarajatlarini monitoring qilishning yangi usullarini joriy etish zarurligini ta'kidlaydi. Bu yondashuv, davlat moliyaviy resurslarining samarali taqsimlanishini va xalqning ishonchini oshirishga xizmat qilishini aytib o'tgan.[4]

Karimova Z.X., Djamalov X.N., Islamkulov A.X.larning fikricha budjet tizimidagi qonunchilikni yanada takomillashtirish zarurligini ta'kidlaydi. Ularning fikriga ko'ra, O'zbekiston moliya tizimi o'zgarayotgan iqtisodiy sharoitlarga mos kelishi uchun buxgalteriya hisobining yangi standartlarini joriy etish, xalqaro bilim va ko'nikmalardan foydalanish lozim, deb ta'kidlaganlar.[5]



TAHLIL VA NATIJALAR

Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari Kengashi hisoblash va kassa usulida qo'llaniladigan Davlat sektorida moliyaviy hisobot xalqaro standartlarini ishlab chiqqan. Unga ko'ra kassa metodi bo'yicha 1 ta standart (IPSAS Cash Basis. 2008) va hisoblash metodi bo'yicha 43 ta standartlar qabul qilingan. Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari butun jahonda moliyaviy hisobot standartlarining yaqinlashishida, kelishuvida va yanada yaxshilanishida muhim rol o'ynadi. Ulardan quyidagi maqsadlarda foydalaniladi:



1-rasm.Xalqarostandartlardanfoydalanilishturlari.

(ushbu rasm muallif tomonidan tayyorlandi)

Buxgalteriya hisobining kassa metodida sub'ekt tomonidan naqd pul kelib tushgan yoki to'langandagina operatsiyalar va hodisalar tan olinadi. Kassa metodi asosida tuzilgan moliyaviy hisobotlar foydalanuvchilarga ma'lum bir davrda olingan mablag'larning



manbalari, mablag'larning qanday maqsadlarda foydalanilganligi va hisobot sanasidagi naqd pul qoldig'I haqida ma'lumot beradi.¹

Kassa usulida operatsiyalar va barcha hodisalar (daromadlar, xarajatlar) pul mablag'lari harakatiga bog'liq bo'lgan holda qayd qilinadi yoki tan olinadi. Amaliyotda qisman mamlakatlar kassa usulida (sof holda) hisobni yuritadilar. Hisob amaliyotida kassa usulini qo'llanilishini ham o'ziga xos xususiyatlarini quyidagi SWOT tahlilda yoritilgan:



2-rasm. Kassa metodining SWOT tahlili.

¹ Davlat sektori uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (IPSAS -Cash Basis-2008).11-b.



(ushbu rasm muallif tomonidan tayyorlandi)

Buxgalteriya hisobida kassa metodining afzalliklari va kamchiliklarini batafsilroq quyida yoritib o`tdik:

Afzalliklari:

1. Pul oqimlarini aniq nazorat qilish:

Kassa metodi pul kirim va chiqimlari asosida hisob-kitob qiladi. Davlat sektori tashkilotlari uchun bu metod pul oqimlarini aniq nazorat qilish imkonini beradi, ayniqsa, davlat byudjetidan ajratilgan mablag`lar va ularning sarflanishini kuzatishda muhim ahamiyatga ega.

2. Soliq va byudjet daromadlarini samarali boshqarish:

Davlat sektori uchun, naqd pul asosida hisob-kitob qilish, soliqlarni va byudjet mablag`larini to`lashni aniq va vaqtida amalga oshirish imkonini beradi. Bu usul, moliyaviy tizimda naqd pulning kirim va chiqimlarini real vaqt rejimida kuzatishga yordam beradi va bu orqali soliqlarning to`lanishini samarali boshqarish mumkin.

3. Buxgalteriya hisobini soddalashtirish:

Kassa metodi buxgalteriya hisobini soddalashtiradi, chunki tashkilot faqat naqd pulning kirimi yoki chiqimi asosida hisobot beradi. Bu davlat tashkilotlarida hisoblarni yuritish jarayonini yengillashtiradi va buxgalteriya ishlarini tezlashtiradi, chunki murakkab hisob-kitoblar va kredit operatsiyalari talab qilinmaydi.

4. Budjet mablag`larining samarali taqsimlanishi:

Kassa metodi, davlat sektori tashkilotlariga byudjet mablag`larini aniq va to`g`ri taqsimlash imkonini beradi. Pul mablag`larining naqd ravishda olingan va sarflanganligini hisobga olgan holda, mablag`lar samarali ravishda taqsimlanadi.

5. Buxgalteriya xatoliklarini kamaytirish:



Naqd pul oqimi asosida hisob-kitob qilish jarayonida xatoliklar kamayadi, chunki bu metodda hisoblar va qarzдорliklar to'g'ridan-to'g'ri naqd pul bilan bog'liq bo'ladi. Bu esa, qayta hisoblash va noto'g'ri yozuvlarni kamaytirishga yordam beradi.

6. Xodimlardan yuqori malaka talab etilmasligi.

7. Hisobotlarni o'z vaqtida ta'minlanishi.

Kamchiliklari:

1. Moliyaviy holatni aniq tahlil qilishning qiyinligi:

Kassa metodi faqat naqd pul oqimi asosida hisob-kitob qiladi, bu esa davlat sektoridagi tashkilotlarning moliyaviy holatini to'liq va aniq tahlil qilishni qiyinlashtiradi. Xususan, moliyaviy majburiyatlar va kelajakdagi to'lovlar (masalan, qarzlar) haqida batafsil ma'lumot olish qiyin bo'ladi.

2. Budjetdan tashqari mablag'lar va qarzlarini hisobga olishda noaniqlik:

Kassa metodi davlat sektori uchun ayniqsa budjetdan tashqari mablag'lar va qarzlar bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Agar tashkilot kreditlar yoki muddatli to'lovlarni amalga oshirsa, bu metod kelajakdagi majburiyatlarni hisobga olishda noaniqliklar yuzaga kelishi mumkin.

3. Uzoq muddatli rejalashtirishning qiyinlashuvi:

Kassa metodi uzoq muddatli moliyaviy rejalashtirishni qo'llab-quvvatlamaydi, chunki tashkilot faqat naqd pul oqimiga asoslangan holda qarorlar qabul qiladi. Bu esa davlat sektori tashkilotlarining uzoq muddatli investitsiya rejalari va strategic moliyaviy qarorlar qabul qilishni qiyinlashtiradi.

4. Moliyaviy tahlil va hisobotlarning cheklanishi:

Kassa metodi asosida yuritilgan buxgalteriya hisoboti faqat kirim va chiqimlarning real vaqtida olingan ma'lumotlariga asoslanadi. Bu, davlat sektori tashkilotlarining moliyaviy holatini to'liq tahlil qilish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha ma'lumotlardan mahrum bo'lishiga olib kelishi mumkin.



5. Xalqaro hisob-kitob standarti bilan mos kelmaslik:

Kassa metodi ko'plab xalqaro buxgalteriya standartlariga (masalan, Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari – IFRS) mos kelmaydi, chunki u faqat naqd pul oqimiga asoslangan hisob-kitobni ta'minlaydi. Bu, davlat sektori tashkilotlari uchun xalqaro moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

6. Operatsiya va hodisalarni haqiqiy sodir bo'lgan vaqtda tan olinmasligi

7. Aktivlar va majburiyatlarni harakati bo'yicha to'liq axborotlarni olish imkonini yo'qligi

XULOSA

Kassa metodi davlat sektori uchun pul oqimlarini aniq va samarali boshqarish imkonini berishi mumkin, ammo uning uzoq muddatli moliyaviy rejalashtirish va tahlil uchun cheklovlari mavjud. Shuning uchun, davlat sektorida buxgalteriya hisobini kassa metodi bo'yicha yuritishdan oldin, uning ijobiy va salbiy tomonlarini chuqur tahlil qilish zarur. Uzoq muddatli va kompleks moliyaviy operatsiyalarni boshqarishda boshqa metodlarni qo'llash tavsiya etilishi mumkin. Budget hisobini isloh etishning keying bosqichlarida Davlat budjeti daromadlari va xarajatlari hisobi, shuningdek, Davlat maqsadli jamg'armalari hisobini kassa usulidagi Davlat sektori moliyaviy hisobot xalqaro standartlariga va shu asosda davlat sektori hisobi va hisoboti tizimini hisoblash usulidagi Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlariga moslash amalga oshiriladi.



Foydalanilganadabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksi.161-modda.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining " O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining g'aznachligi to'g'risida nizomni tasdiqlash haqida"qarori, 20.03.2007 yildagi 53-son.
3. Davlat sektori uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (IPSAS -Cash Basis-2008).11-b.
4. S.Mehmonov, I.Qo`ziyev, A.Ostonaqulov, A.Kuliboyev, A.Suvanqulov. "Byudjet hisobining xalqaro standartlari". Darslik;-T.: "Niholprint".2023.14-b
5. James CH.,Thomas B."Cash Accounting Definition, Example & Limitations" 2020
6. Ковалев В.В., Вит. В. Ковалев. Корпоративные финансы и учет: понятие, алгоритмы, показатели: учеб. пособие [Электронный ресурс]. – М.: проспект, КНОРУС, 2010.
7. Malikov T. Moliya. Darslik. –T.: "Iqtisod-moliya", 2023.
8. Karimova Z.X, Djamalov X.N, Islamkulov A.X. "Byudjet tizimi". O'quv qo'llanma. T.: "VORIS NASHRIYOT". 2012 y
9. www.lex.uz (O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi).